

"Vodorod energetikasi texnologiyalarini rivojlantirish istiqbollari" Xalqaro ilmiy seminar

O'zR FA Materialshunoslik institutida Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti va Rossiya Fanlar akademiyasi I.V.Grebenshchikov nomidagi silikat kimyo instituti (Sankt-Peterburg) "Vodorod energetikasi texnologiyalarini rivojlantirish istiqbollari" mavzusida Xalqaro ilmiy onlayn seminar o'tkazildi. Seminarning maqsadi vodorod energetikasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari hamda ilmiy hamkorlik imkoniyatlarini muhokama qilishdan iborat edi.



Uglevodorod zahiralarining kamayishi olimlar va mutaxassislarni arzon va eng muhimi, ekologik toza energiya manbasini qidirishga majbur qilmoqda. An'anaviy energiya manbalarini almashtirish, ularning iste'mol ulushini kamaytirish uchun ushbu manba bitmas va arzon bo'lishi kerak. Shu bilan birga, bunday moddaning narxi tabiiy gaz, neft va ko'mir kabi bir xil an'anaviy xom ashyoning narxidan oshmasligi kerak.



Vodorod shunday arzon va keng qo'llaniladigan energiya manbasiga aylanishi mumkin. Uning zahiralari cheksiz va yangilanib turadi, chunki suvdan tashqari o'simliklar, biomassa va chiqindilar ham bunday xom-ashyoning manbai bo'lishi mumkin. Uning yonish issiqligi juda yuqori - taxminan 2800 daraja Selsiy.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, 2050-yilga kelib vodorod energiyasining ulushi 18 foiz, 2100-yilga kelib esa 40 foizdan oshadi. Pricewaterhouse Coopers prognoziga ko'ra, 2025-yilga kelib barcha turdagi yoqilg'i hujayralariga bo'lgan talab 2,5 trillion dollardan oshadi. Demak, vodorod energetikasi bozori jadal kengaymoqda va 2050-yilga kelib kamida 500 milliard dollarni tashkil etadi.

Xalqaro seminarda vodorod energiyasi sohasidagi masalalarga bag’ishlangan ma'ruzalar tinglandi hamda vodorod energetikasi texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan izlanishlar to'g'risida ma'lumot almashildi.

Shuningdek, vodorod olish, saqlash va tashishning samarali texnologiyalari va usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy hamkorlik imkoniyatlari muhokama qilindi.